JISMONIY SHAXSLAR UCHUN BANK KREDITLARINING TURLARI TASNIFI

Turdiboyeva Kumush Erkinovna
Ipoteka Bank OTP Group Navoiy viloyati filiali "Chakana xizmatlar bòlimi" menejeri, E-mail: k.turdiboyeva@gmail.com

Qabul qilindi: 11.10.2025
Ko‘rib chiqildi: 12.10.2025
Tasdiqlandi: 13.10.2025

Kalit so‘zlar: jismoniy shaxslar, bank krediti, kredit turlari, iste’mol krediti, ipoteka, mikroqarz, foiz stavkasi, kreditlash, moliyaviy xizmatlar.

Annotatsiya. Ushbu maqolada jismoniy shaxslar uchun taqdim etiladigan bank kreditlarining asosiy turlari, ularning iqtisodiy mazmuni va farqlari yoritib berilgan. Kredit turlarining tasnifi ularning maqsadiga, muddati, ta’minoti va foiz stavkalari bo‘yicha o‘rganilgan. Shuningdek, iste’mol krediti, ipoteka krediti, avtomobil krediti va mikroqarzlar kabi kredit shakllarining afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilingan. Maqola aholining kreditlashdagi ehtiyojlarini aniqlash hamda kredit siyosatini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalarni ham o‘z ichiga oladi.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyotda kreditlash asosiy moliyaviy instrumentlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda oddiy iste'molchilar orasida qaysi turdagi kreditlar eng mashhur ekanligini va ularning xususiyatlari qanday ekanligini haqida ma’lumot beramiz.

Kredit - qarz beruvchi tomonidan qarz oluvchiga ma'lum shartlar – kreditni qaytarish muddatini va kredit bo'yicha foizlar belgilash asosida beriladigan qarzdir.

Qarz oluvchiga kim tomonidan – yuridik shaxs, moliya tashkiloti yoki davlat tomonidan kredit berilishiga qarab, kredit tijorat, bank yoki davlat krediti bo’lishi mumkin. Oddiy iste'molchiga asosan bank kreditlari ma’lum.

Bank krediti - bu moliyaviy tashkilotning jismoniy yoki yuridik shaxsga to'lovlilik, muddatlilik, to'lovlik, maqsadlilik va ta'minlanganlik tamoyillari asosida vaqtincha foydalanish uchun pul mablag'larini berish jarayonidir.

Banklarning jismoniy shaxslarga kredit berishning eng keng tarqalgan turlarini ko'rib chiqamiz.

Bugungi kunda mamlakatimizda banklar jismoniy shaxslarga quyidagi kredit turlarini taqdim etadilar:

1. Iste'mol krediti - bu bank tomonidan qarz oluvchiga iste'mol tovarlari yoki xizmatlarni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan aniq maqsadlar uchun beriladigan qarzdir. Agar keng ma'noda iste'mol krediti haqida gapiradigan bo'lsak, unda bu toifaga ipoteka, avtokreditlar, shuningdek, naqd pul

ko’rinishidagi kreditlar va muddatli to’lov asosida ishlaydigan savdo tashkilotlari kreditlari kiradi. Ammo bank amaliyotida avtokreditlar, ipoteka va naqd pul kreditlari alohida shartlarga ega bo'lganligi sababli kreditlarning alohida turlari bo’lib hisoblanadi.

2. Avtokredit, mohiyatan, garovga asosida beriladigan maqsadli iste’mol kreditidir. Maqsadli - chunki u ma'lum bir maqsad uchun ya’ni avtomobil sotib olish beriladi. Ta'minlangan - chunki sotib olingan avtomobil garovga qoyiladi. Agar qarz oluvchi kreditni to'lashni to'xtatsa, bank qarzni to'lash uchun mashinani qarzni yopishga yo’naltiradi.

3. Ipoteka krediti har doim ko'chmas mulk sotib olish uchun va ko'chmas mulk bilan ta'minlangan holda beriladi, shuning uchun uni iste'mol kreditiga qaraganda ancha uzoqroq muddatga va pastroq foiz stavkasida olish mumkin. Ipoteka, shuningdek, qurilish, ta'mirlash va rekonstruksiya qilish uchun ham beriladigan kredit hisoblanadi.

4. Mikroqarzlar - bu bir necha daqiqada istalgan maqsadda berilishi mumkin bo‘lgan soddalashtirilgan kredit shakli bo‘lib, ularni hatto uydan chiqmagan holda ham olish mumkin. Mikroqarz shu yerda va hozir pul kerak bo'lganda, qisqa vaqt ichida kichik miqdorda pul olish imkonini beradi. Mikroqarz 50 million so‘mgacha bo‘lgan miqdorda 3 yilgacha muddatga olinishi mumkin.

So‘nggi bir necha yil davomida mikroqarzlar aholi orasida eng ommabop moliyaviy mahsulotlardan biriga aylandi. Buning asosiy sababi ularni olish osonligi va maqsadi yo'qligidir. Odamlar turli vaziyatlarda mikroqarz olish uchun murojaat qiladi, ba'zilari ularni favqulodda ehtiyojlar uchun, masalan, shifokorga borish yoki mashinasini ta'mirlash uchun, boshqalari esa kvartirani ta'mirlash yoki yangi telefon sotib olish uchun oladi. Aksariyat mijozlar kreditni faqat kerak bo‘lganda olishga va o‘z vaqtida qaytarishga harakat qilsa-da, ularning mohiyatini tushunmaydiganlar ham bor.

5. Overdraft debet kartalari uchun qisqa muddatli kreditlashning eng oddiy shaklidir. Bunda Bank mijozga uning hisobvarag‘idan/kartasidan tovar va xizmatlar uchun balansdan ortiq miqdorda to‘lash huquqini beradi. Natijada overdraft summasini tashkil etuvchi overdraft shakllanadi.

6. Ta'lim krediti - bu ta'lim muassasasida ta'lim olish uchun qarz oluvchiga beriladigan maqsadli kredit.

Bundan tashqari, kredit kartalari kreditlashning alohida toifasi hisoblanadi. Ammo bugungi kunda ular mamlakatimizda keng tarqalmagan.

O‘zbekistondagi tijorat banklari o‘z kredit siyosatidan kelib chiqqan holda kreditlarning ayrim turlarini, shuningdek, chakana kreditlar berishning turli shartlarini taklif etadilar. Umuman olganda, kreditlar uchun shartlar, maksimal miqdorlar, foiz stavkalar va ta’minot turlari bir-biridan unchalik farq qilmaydi.

Biroq, kredit xizmatidan foydalanishdan oldin, siz pul mablag'larini olish va qaytarish shartlarini, shuningdek, mablag'lardan foydalanganlik uchun foizlarni hisoblash mexanizmini diqqat bilan o'rganishingiz kerak. Shuningdek, hozirgi vaziyatingizda qaysi bank mahsuloti sizga mos kelishini diqqat bilan o'rganishingiz maqsadga muvofiqdir. Chuqur o'ylab qabukl qilingan qarorlar bankka mablag'larni qaytarish bilan bog'liq noxush vaziyatlardan xalos bo'lishga yordam beradi.

Qarz oluvchining daromadi bank tomonidan kredit berish to'g'risida qaror qabul qilish va mumkin bo'lgan kredit miqdorini aniqlashda hisobga olinadigan asosiy parametrlardan biridir.

Albatta, mijozning kreditga layoqatliligini aniqlashda asosiy hujjat ish joyidan olingan daromadlar to‘g‘risidagi ma’lumotnoma hisoblanadi. Ammo ko'pchilik boshqa rasmiy va kelajakda kreditni qaytarish manbai sifatida ko'rsatilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha daromad manbalariga ham ega bo’ladi. Faqatgina bunday daromadlarni hisobga olish qoidalari banklar tomonidan mustaqil belgilanadi. Shuning uchun, agar qo'shimcha daromad manbalari mavjud bo'lsa, potentsial kreditorlar bilan ushbu daromadlarning hisobga olinishi yoki olinmasligi haqida oldindan maslahatlashish kerak. Chunki kredit olish uchun bankni tanlashda bu muhim ahamiyatga ega bo’lishi mumkin.

Qonun hujjatlariga muvofiq (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 3205-son qarori) qarz beruvchi qarz oluvchi o‘rtacha oylik daromadlarini aniqlashda quyidagi tasdiqlovchi hujjatlar va ma'lumotlardan foydalanish huquqiga ega:

- ish beruvchi tomonidan tasdiqlangan ish haqi to‘g‘risidagi ma'lumotlari;
- pensiya miqdori to‘g‘risidagi ma'lumotlari;
- fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya badallari to‘g‘risidagi ma'lumotlari;
- foizlar, dividendlar, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan va shular kabi boshqa doimiy tarzdagi daromadlarini tasdiqlovchi ma'lumotlar.

Ya'ni, qonunga ko'ra, qarz oluvchi kredit olish uchun ariza topshirayotganda bankka o'zining hujjat bilan tasdiqlanishi mumkin bo’lgan har qanday rasmiy daromadini ko'rsatishi mumkin. Asosan bu jismoniy shaxs soliq to'laydigan daromadlardir. Shaxsning rasmiy ish joyi bo'lmasligi mumkin, lekin boshqa manbalardan daromad olishi va ular uchun soliq to'lashi mumkin. Darhaqiqat, shaxsning rasmiy ishi bo'lmagan, ammo rasmiy daromadi bo'lgan holatlarda u bankdan kredit olishi mumkin. Ammo, afsuski, amalda bunday emas, barcha banklarda rasmiy ish joyi talabi mavjud. Biroq o'rtacha oylik ish haqi kreditni to'lash uchun yetarli bo'lmagan hollarda, banklar boshqa daromadlarni kreditni to'lashning qo'shimcha manbai sifatida qabul qiladilar, bu banklarning ichki qoidalariga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shukurov O., Raxmatov N. Moliyaviy xizmatlar bozorida iste'molchilarning huquqiy himoyasi. – Toshkent: "Adolat", 2018. – 198 b.
2. Moliya va iqtisodiyot jurnali. – 2022, №3. – B. 45–52.
3. Abdurahmonov Q.X. Iqtisodiy nazariya asoslari. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2020. – 400 b.
4. G'ulomov S.S., G'ulomov Sh.S. Bank ishi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2022. – 416 b.